

**TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLIGI VA MOLIYAVIY  
BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI:  
MILLIY VA XALQARO TAJRIBA**

**Murodullayev Salohiddin Bobojon o'g'li**

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar

universiteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot tijorat banklarining likvidligini ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni boshqarish strategiyalarini Agrobank ATB misolida va xalqaro banklar (J.P. Morgan Chase, Landesbank, Commerzbank, UBS Group, Agriculture Bank of China) tajribasi asosida tahlil qiladi. Regressiya tahlili va Z-score modeli yordamida aktivlar rentabelligi (ROA), xarajatlarning daromadga nisbati (CIR), kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR), likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR), bank hajmi (BS) va daromad diversifikatsiyasi (ID) kabi ko'rsatkichlarning moliyaviy barqarorlikka ta'siri baholanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ROA va CAR Agrobank ATB va Xitoyning Agriculture bankida barqarorlikni sezilarli darajada oshiradi, CIRning ta'siri esa kontekstga bog'liq. LCRning ta'siri cheklangan bo'lib, likvidlik boshqaruvidagi muammolarni ko'rsatadi. Tavsiyalar kredit portfelini optimallashtirish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va operatsion samaradorligini oshirish va daromadlarni xilma xilligini o'z ichiga oladi. Tadqiqotda xalqaro tajribalarni O'zbekiston bank tizimiga integratsiyalash orqali barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirish muhimligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, Z-score, regressiya tahlili, Basel III, kapital yetarliligi.

**Abstract:** The study analyzes the liquidity management strategies of commercial banks based on the example of Agro JSCB and international banks (J.P. Morgan Chase, Landesbank, Commerzbank, UBS Group, Agriculture Bank of China). Using regression and Z-score analysis models, the impact of such indicators on the results as return on assets (ROA), ratio to income (CIR), capital adequacy ratio (CAR), liquidity ratio (LCR), bank size (BS) and income diversification (ID) is assessed. The results are strong, and CAR can be improved in Agrobank JSCB and Agriculture Bank of China, while the impact of CIR depends on the context. The impact of LCR on liquidity management is in the form of control, liquidity management. Recommendations include optimizing credit risk, developing orderly banking services, and diversifying operational burden and income. The study emphasizes the importance of ease and security by integrating international experiences into the banking system of Uzbekistan.

**Keywords:** commercial banks, liquidity, capacity, Z-score analysis, Basel III, capital adequacy

## **1. Kirish**

Tijorat banklarining likvidligini ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni boshqarish iqtisodiy o'sish va global moliyaviy xavfsizlik uchun muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy institatlarning barqarorligi, xususan, tijorat banklarining likvidligi va moliyaviy barqarorligini boshqarish zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz, COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan likvidlik inqirozi, shuningdek 2025 yilda Pulaski Savings Bank, 2024 yilda The First National Bank of Lindsay, Republic first bank and Republic bank, 2023-yilda AQShdagi Silicon Valley bank va Signature bank singari yirik banklarning bankrotlik holatlari ushbu masalalar dolzarbligini yanada oshirdi. O'zbekistonda tijorat banklarining likvidligi va barqarorligini ta'minlash iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash uchun muhimdir. Ushbu tadqiqot "Agrobank" ATB va xalqaro banklarning tajribalarni solishtirish orqali likvidlik va moliyaviy barqarorlikni boshqarish strategiyalarini tahlil qiladi va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqadi.

Tadqiqot maqsadi tijorat banklarining likvidligini ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni boshqarish bo'yicha milliy va xalqaro tajribalarga asoslangan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari esa quyidagilar hisoblanadi.

- aktivlar rentabelligining (ROA) moliyaviy barqarorlikka ta'sirini panel ma'lumotlar yordamida tahlil qilish;

- kapital yetarliligi koeffitsiyentining (CAR) ta'sirini va cheklovchi omillarni (masalan, tartibga solish qoidalari) aniqlash;

- xarajatlarning daromadga nisbati (CIR) ning salbiy ta'sirini kamaytirish strategiyalarini baholash;

- bank hajmining (BS) barqarorlikka ta'sirini kichik, o'rta va yirik banklar bo'yicha solishtirish.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Likvidlik bankning qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida qoplash qobiliyatini, moliyaviy barqarorlik esa iqtisodiy inqirozlarga chidamliliginu ta'minlaydi (BIS 2008). J.M. Keynsning likvidlik afzalligi nazariyasi pulga bo'lgan talab va foiz stavkalarining shakllanishini tushuntiradi, bu banklarning likvidlik strategiyalariga asos bo'ldi. Diamond va Dybvigning bank inqirozlari modeli likvidlik muammolari va depozitlarni sug'urtalash zarurligini ta'kidlaydi.. Pavlo Vadovaning ta'kidlashicha iqtisodiy o'sish davrida kreditlash talabi likvidlikni pasaytirsa, tanazzul davrida banklar likvid aktivlarni ko'proq ushlab turadi. Wagner (2007) yuqori likvid aktivlar banklarning risk qabul qilishini oshirib, barqarorlikni pasaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Vodova (2013) Vengriya banklari misolida bank hajmi va foydalilik likvidlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillar ekanligini aniqladi. Gupta va Kashiramka (2020) Hindiston banklarida likvidlik yaratish barqarorlikni

oshirishini isbotladi, lekin bu ta'sir bank hajmi va mulkchilik turiga bog'liq. Kasana va boshqalar (2024) depozitlar va kapital yetarliligi likvidlikka ijobiy ta'sir qilishini, lekin yuqori foiz stavkalari va zaxira talablari salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Handy Octavianus, Khaira Amalia Fachrudin (2022) ta'kidlashicha, xalqaro banklar diversifikatsiya xarajatlarini samarali boshqarish orqali barqarorlikni oshiradi. Elena G. Shersneva (2024) kapital yetarliligi moliyaviy barqarorlikka sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Aktivlar daromadliligi (ROA) moliyaviy barqarorlikka sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin likvidlik koeffitsienti sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Ortiqcha likvidlik daromadlilikni pasaytiradi, chunki banklar past daromadli moliyaviy vositalarda aktivlarini saqlaydi. Muddati o'tgan kreditlar ulushi moliyaviy barqarorlikka sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu natija bank aktivlarining sifati pasayishi va kredit zaxiralarining oshishi bankning moliyaviy holatini yomonlashtirishini ko'rsatadi. Thanh Nga Thi Tran va boshqalar (2025) likvidlik yaratishning bank barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

### **Metodologiya.**

Ushbu tadqiqotda regressiya va korrelyatsion tahlillar, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni o'lchash uchun Z-score modeli qo'llanildi. Banklarning moliyaviy barqarorligini baholash uchun Z score quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Z \text{ score} = \frac{\text{ROA} + \frac{\text{Equity}}{\text{Total assets}}}{\sigma_{\text{ROA}}}$$

Tadqiqotda tahlil ma'lumotlari "Agrobank"ATB (O'zbekiston) va xalqaro banklar (J.P. Morgan Chase, Landesbank, Commerzbank, UBS Group banki, Agriculture Bank of China)ning 2017–2024 yillardagi moliyaviy hisobotlaridan olingan. Asosiy o'zgaruvchilar: ROA, CIR, CAR, LCR, BS va ID. Bu yerda:

ROA-aktivlar rentabelligi;

CIR-bankniung operatsion samaradorligi;

CAR-kapital yetarliligi;

LCR-likvidlikni qoplash koeffitsiyenti;

BS-bank hajmi;

ID(income diversity)-daromadlar xilma-xilligi.

Panel ma'lumotlar regressiyasi statistik ahamiyatni baholash uchun ishlatiladi. Tadqiqot quyidagi gipotezalarni sinovdan o'tkazadi.

**H1:** Aktivlar rentabelligi (ROA) tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**H2:** Tijorat banklarning kapital yetarlilik koeffitsiyenti (CAR) va bank hajmi (BS) moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**H3:** Xarajatlarning daromadga nisbati (CIR) bank barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu gipotezalar tadqiqot metodologiya (ekonometrik tahlil, panel ma'lumotlar regressiyasi, Z-score) asosida sinovdan o'tkaziladi.

Regression tahlilda quyidagi ekonometrik modeldan foydalaniladi:

$$\text{Z-SCORE}_{it} = \alpha + \beta_1 \text{ROA}_{it} + \beta_2 \text{ID}_{it} + \beta_3 \text{CIR}_{it} + \beta_4 \text{LCR}_{it} + \beta_5 \text{CAR}_{it} + \beta_6 \text{BS}_{it} + \varepsilon_{it}$$

Ma'lumotlar to'plash jarayoni tadqiqotning maqsad va vazifalariga muvofiq tuzilgan bo'lib, quyidagi manbalardan foydalaniladi:


Agrobank ATBning yillik moliyaviy hisobotlari va audit xulosalari.

Xalqaro moliyaviy institatlarning hisobotlari (Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon banki, Bank nazorati bo'yicha Basel Qo'mitasi ma'lumotlari).

Xalqaro banklarning moliyaviy hisobotlari (masalan, AQShning JPMorgan Chase, Germaniyaning Commerzbank, Landesbank WB, UBS Group banki va Xitoyning Agriculture banki).

### Tahlil va natijalar.

"Agrobank" ATB O'zbekiston Respublikasida asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi sohasiga yo'naltirilgan yetakchi moliyaviy muassasalaridan biri sifatida, iqtisodiy o'zgarishlar va yuqori xavfli kreditlar sharoitida barqarorlikni saqlashga intiladi. Ushbu bobda Agrobankning 2017-2024 yillardagi moliyaviy barqarorligi Z score modeli asosida tahlil qilinadi. Z score natijalari bankning moliyaviy holatini kompleks ravishda ko'rsatib, uning barqarorlik darajasini aniqlashga yordam beradi.



Yuqorida 1- chiziqli grafikda Agrobank ATBning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari chiziqli grafik shaklda aks ettirilgan. (Manba: muallif tomonidan ATB Agrobankning moliyaviy hisobotlari asosida tayyorlangan)

Ushbu chiziqli grafikda Agrobank ATB ning 2017-2024 yillarda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini (Z-score, CIR, LCR, CAR va ROA) ko'rsatadi. Har bir ko'rsatkichning o'zgarish tendentsiyasi va umumiyligi tahlil quyidagilardan iborat. 2017–2019 (Z-score: 61.18–68.3) Z-score yuqori darajada bo'lib, bankning

moliyaviy barqarorligini ko‘rsatadi. Yuqori kapital/aktivlar nisbati (21.33–26.4%) va ROAning o‘rtacha ijobiy qiymatlari (0.7–1.6%) Z-scoreni mustahkamladi. 2017 yilda eng yuqori Z-score (68.33) kapital/aktivlar nisbatining yuqoriligi (26.4%) bilan bog‘liq. 2020 (Z-score: 42.25) Z-score pasaydi, bu kapital/aktivlar nisbatining tushishi (16.38%) va pandemiya ta’siri bilan bog‘liq. Shu bilan birga, Z-score 40 dan yuqori bo‘lib, nochorlik xavfi pastligini ko‘rsatadi. 2021–2023 (Z-score: 45.14–57.16) Z-score moliyaviy barqarorlik tiklanib, 45.14–57.16 oralig‘iga yetdi. Bu ROAning o‘sishi (1.2–1.4%) va kapital/aktivlar nisbatining barqarorligi (16.20–22.24%) bilan bog‘liq. 2023 yilda foydaning o‘sishi (233.6 mlrd so‘m) Z-score (moliyaviy barqarlik)ni qo‘llab-quvvatladi. 2024 (Z-score: 38.61) Z-score eng past darajaga tushdi, bu ROAning keskin pasayishi (0.3%) va kapital/aktivlar nisbatining tushishi (15.52%) bilan bog‘liq. NPLning oshishi (4.9%) va CIRning ko‘tarilishi (72.84%) Z-scoreni pasaytiruvchi omillar bo‘ldi.

LCR ning sezilarli o‘sishi (135.8 dan 195.8 ga) va CIR ning pasayishi (68.33 dan 38.61 ga) bankning likvidlik va operatsion samaradorligi yaxshilanganini ko‘rsatadi.

ROA ning keskin pasayishi (1.6 dan 0.3 ga) aktivlar rentabelligining zaiflashganini anglatadi, bu bankning uzoq muddatli barqarorligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Z-score va ROA ning o‘zgaruvchanligi ham barqarorlikdagi muammolarni ko‘rsatadi.

Agrobank ATB misolida va J.P. Morgan Chase, Landesbank, Commerzbank, UBS Group hamda Agriculture Bank of China kabi xalqaro banklar tajribasi asosida ushbu tadqiqot banklarning moliyaviy chidamlilagini oshirish strategiyalarini tahlil qiladi. Regressiya tahlili va Z-score modeli yordamida aktivlar rentabelligi (ROA), xarajatlarning daromadga nisbati (CIR), kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR), likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR), bank hajmi (BS) va daromad diversifikatsiyasi (ID) kabi ko‘rsatkichlarning barqarorlikka ta’siri o‘rganildi.

### 1-jadval

#### **“Agrobank” ATB moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarining descriptive tahlili.**

<b>Variable</b>	<b>Mean</b>	<b>Std. Dev.</b>	<b>Min</b>	<b>Max</b>
<b>Zscore</b>	51.32316	10.51983	38.60909	68.3331
<b>ROA</b>	1,7	.4097386	.3	1,6
<b>CIR</b>	71.74	11.40253	60.7	97.2
<b>CAR</b>	17.6125	3.190359	13,2	23
<b>LCR</b>	152.775	25.3799	121.7	195.8
<b>TA</b>	3342.818	2014.444	609.7502	6209.546
<b>InDiv</b>	29.4025	10.72674	21.71	55.17

“Agrobank” aksiyadorlik-tijorat banki mamlakat iqtisodiyotidagi eng yirik moliyaviy institutlardan biri sifatida qishloq xo‘jaligi sohasini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. 2017–2024-yillardagi moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarining deskriptiv tahlili bankning faoliyatini baholashda muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. Jadvalga ko‘ra, Z-score o‘rtacha 51.32316 (standart og‘ish 10.51983) bo‘lib, minimal 38.60909 (2024) va maksimal 68.3331 (2017) qiymatlarni ko‘rsatadi, bu bankning moliyaviy barqarorligida pasayish tendensiyasini anglatadi. ROA va Z-scoredagi pasayish operatsion samaradorlikni oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

## 2-jadval

### “Agrobank” ATB moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarining korrelatsion jadvali tahlili

Nomi	Z score	ROA	CIR	CAR	LCR	In Div	BS
<b>Z score</b>	1						
<b>ROA</b>	0,371584	1					
<b>CIR</b>	0,709425	0,188391	1				
<b>CAR</b>	0,787112	0,070925	0,235683	1			
<b>LCR</b>	-0,14458	-0,85823	0,085805	0,025763	1		
<b>In Div</b>	0,745762	0,493719	0,89942	0,300702	-0,30647	1	
<b>BS</b>	-0,8101	-0,35882	-0,62967	-0,74484	0,117799	-0,73338	1

Yuqorida korrelatsiya jadvali assosida Agrobank ATB ning =moliyaviy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilamiz. Z-score (moliyaviy barqarorlik darajasi) CAR (kapital adekvatlik nisbati) bilan 0.7871 kabi kuchli ijobiy korrelatsiyaga ega bo‘lib, bu barqarorlikning kapitalizatsiyaga qat’iy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi, shu bilan birga In Div (daromad diversifikatsiyasi) bilan 0.7458 korrelatsiyasi daromad diversifikatsiyaning barqarorlikka yordam berishini tasdiqlaydi. Z-score ning BS (bank hajmi) bilan -0.8101 kabi kuchli salbiy korrelatsiyasi esa kichikroq bank hajmining barqarorlikka ijobiy ta’sir qilishini anglatadi. ROA (aktivlar rentabelligi) LCR (likvidlik qoplanish nisbati) bilan -0.8582 kabi kuchli salbiy bog‘liqlikka ega bo‘lib, bu likvidlikning rentabellikka qaramaqarshi ta’sirini ko‘rsatadi, holbuki CIR (xarajat-daromad nisbati) In Div bilan 0.8994 kabi yuqori ijobiy korrelatsiya bilan bog‘langan, bu xarajatlar va diversifikatsiya o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ko‘zga tashlaydi. CAR BS bilan -0.7448 salbiy korrelatsiyasi kapital adekvatligining balans hajmiga teskari bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu jadvalda bankning kapital yetarliligi va daromad xilma-xilligiga alohida e’tibor qaratishi kerak.

**“Agrobank” ATBning regressiya tahlil natijasi**

ZST	Coef.	Std. Err.	t	P>t	[95% Conf.]	Interval]
<b>ROA</b>	.2270001	.0284495	7,98	0.079*	-.134485	.5884852
<b>CIR</b>	.8432018	.0898799	9,38	0.068*	-.2988304	1.985234
<b>CAR</b>	.2664583	.0115518	23,07	0.028**	.1196783	.4132382
<b>LCR</b>	-.033727	.0168354	-2.00	0.295	-.247641	.1801871
<b>BS</b>	221.3122	22.30182	9,92	0.064*	-62.05936	504.6837
<b>ID</b>	-.3999435	.101897	-3.92	0.159	-1.694668	.894781
<b>_cons</b>	207.243	20.87544	9,93	0.064	-58.00459	472.4906

“Agrobank” ATBning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichi Z score bo‘yicha regressiya tahlili natijalari quyidagicha: Aktivlar rentabelligi (ROA, koeffitsient 0.227, p=0.079\*) o‘rta muhimlik darajasida ( $5\% \leq p \leq 10\%$ ) barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, bu sof foydaning aktivlarga nisbatan oshishi barqarorlikni yaxshilashini anglatadi. Xarajatlarni daromadga nisbati (CIR, koeffitsient 0.843, p=0.068\*) ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘rta muhimlik darajasida, ammo yuqori xarajatlar barqarorlikka noan’anaviy ijobiy ta’sir ko‘rsatishi operatsion samaradorlikning murakkab dinamikasini ko‘rsatadi. Kapital yetarliligi (CAR, koeffitsient 0.266, p=0.028\*\*) o‘rta muhimlik darajasida ( $1\% \leq p \leq 5\%$ ) barqarorlikka ijobiy ta’sir qiladi, bu bankning riskka chidamlilagini oshirishini tasdiqlaydi. Likvidlik koeffitsiyenti (LCR, koeffitsient -0.034, p=0.295) salbiy ta’sir ko‘rsatadi, lekin statistik jihatdan muhim emas, ya’ni likvidlikning barqarorlikka ta’siri cheklangan. Bank hajmi (BS, koeffitsient 221.312, p=0.064\*) o‘rta muhimlik darajasida ijobiy ta’sirga ega, katta aktivlar barqarorlikni oshirishini ko‘rsatadi. Daromadlar diversifikatsiyasi (ID, koeffitsient -0.400, p=0.159) salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ammo muhim emas, bu foizsiz daromadlarning barqarorlikka ta’sirining noaniqligini bildiradi. Doimiy koeffitsient (207.243, p=0.064) ijobiy, lekin o‘rta muhimlik darajasida. Umuman, ROA, CIR, CAR va BS barqarorlikka sezilarli ta’sir qiladi, LCR va ID esa kuchsiz ta’sir ko‘rsatadi, bu ma’lumotlarning cheklanganligi yoki boshqa omillarning ta’siri bilan izohlanadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ROA va CAR Agrobankda (ROA koeffitsiyenti = 0.227, p = 0.079; CAR koeffitsiyenti = 0.266, p = 0.028) va Agriculture Bank of China’da (ROA koeffitsiyenti = 2.56, p = 0.067) moliyaviy barqarorlikni sezilarli darajada mustahkamlaydi. CIRning ta’siri kontekstga bog‘liq bo‘lib, Agrobankda ijobiy (koeffitsiyent = 0.843, p = 0.068), Agriculture Bank of China’da esa salbiy (koeffitsiyent = -5.51, p = 0.092) ta’sir ko‘rsatadi. LCRning cheklangan ta’siri (Agrobankda p = 0.295) likvidlik boshqaruvidagi qiyinchiliklarni ko‘rsatadi, bu esa yuqori sifatli likvid aktivlar (HQLA) zaxirasini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Bank hajmi barqarorlikka ijobiy ta'sir qiladi (Agrobankda koeffitsiyent = 221.312, p = 0.064), lekin yirik banklarning banklararo bozorga tayanishi tizimli xavflarni oshirishi mumkin. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz va 2023-yilda Silicon Valley Bank kabi banklarning muvaffaqiyatsizligi likvidlikni samarali boshqarish muhimligini yana bir bor tasdiqladi.

### **Xulosa**

Tadqiqot tahlil natijalari asosida Agrobank ATB uchun kredit portfelini optimallashtirish, kichik va o'rta biznesga yuqori marjali kreditlar ulushini oshirish orqali xavflarni 20–30% kamaytirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish orqali foizsiz daromadlarni 15–20% oshirish, uzoq muddatli obligatsiyalar chiqarish va xususiy investorlarni jalb qilish orqali CARni 2–3% mustahkamlash kabi tavsiyalar beradi. Shuningdek, operatsion samaradorlikni oshirish uchun ish jarayonlarni avtomatlashtirish va autsorsing orqali CIRni 5–10% qisqartirish, Basel III bo'yicha 30 kunlik stress-senariylar uchun HQLA zaxirasini shakllantirish orqali likvidlik chidamliligini 25% oshirish va real vaqtida stress-testlar o'tkazish orqali barqarorlikni 30% mustahkamlash taklif qilinadi.

Tadqiqotning cheklovlari O'zbekiston banklarida ma'lumotlar shaffofligining pastligi, global iqtisodiy omillarning (masalan, inflyatsiya) to'liq hisobga olinmaganligi va metodologik muammolar (ko'p kollinearlik) bilan bog'liq. Kelgusida shaffof ma'lumotlar bazasini shakllantirish, dinamik modellar (GMM) yordamida global omillarni tahlil qilish va raqamli xizmatlar orqali daromad diversifikatsiyasini o'rganish tavsiya etiladi. Ushbu strategiyalar O'zbekiston bank tizimining xalqaro standartlarga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. BIS (2008). Basel III: International framework for liquidity risk measurement.
2. Diamond, D. W., & Dybvig, P. H. (1983). Bank runs, deposit insurance, and liquidity. *Journal of Political Economy*.
3. ECB (2024). Financial stability review.
4. FDIC (2025). Failed bank list.
5. Gupta, J., & Kashiramka, S. (2020). Financial stability of Indian banks: Is liquidity creation significant? *Journal of Banking Studies*.
6. Kasana, E., Singh, R., & Sahoo, B. P. (2024). Analyzing liquidity in commercial banks: Evidence from Indian banking groups. *International Journal of Finance*.
7. Keynes, J. M. (1936). The general theory of employment, interest and money.
8. Vodova, P. (2013). Determinants of commercial banks' liquidity in Hungary. *Financial Stability Journal*.
9. Wagner, W. (2007). The liquidity of bank assets and banking stability. *Journal of Banking & Finance*.
10. World Bank (2021). Global economic prospects.